“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILG‘OR TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/07.07.2025. FM/T.192.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

RAHMATOV BEKZOD MANSUR O‘G‘LI

TASHQI MATERIYA MAYDONLARI MAVJUDLIGIDA QORA O‘RALARNING TERMODINAMIK XUSUSIYATLARI VA FUNDAMENTAL CHASTOTALAR

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK 530.12:531.51

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Rahmatov Bekzod Mansur o‘g‘li
Tashqi materiya maydonlari mavjudligida qora o‘ralarning termodinamik xususiyatlari va fundamental chastotalar..... ….3

Rahmatov Bekzod
Fundamental frequencies and thermodynamical properties of black holes in the presence of external matter fields …….....27

Раҳматов Бекзод Мансур ўғли
Фундаментальные частоты и термодинамические свойства чёрных дыр в присутствии внешних полей материи ..…….……...49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ…….....57

“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILG‘OR TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/07.07.2025. FM/T.192.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

RAHMATOV BEKZOD MANSUR O‘G‘LI

TASHQI MATERIYA MAYDONLARI MAVJUDLIGIDA QORA O‘RALARNING TERMODINAMIK XUSUSIYATLARI VA FUNDAMENTAL CHASTOTALAR

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1324 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (tas.newuu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ahmedov Bobomurat Juraevich** Fizika-matematika fanlari doktori, O'zR FA akademigi
Rasmiy opponentlar:	**Mirzayev Temurbek Bahodir o'g'li** Fizika-matematika fanlari doktori
	Xugayev Avas Vasilevich Fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Fesenkov nomidagi Astrofizika Instituti**

Dissertatsiya "Yangi O'zbekiston" universiteti huzuridagi Ilg'or tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil "16" iyul soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 1-uy, "Yangi O'zbekiston" universiteti huzuridagi Ilg'or tadqiqotlar instituti, tel.: +99871202-41-11 , e-mail: info@newuu.uz.)

Dissertatsiya bilan "Yangi O'zbekiston" universiteti huzuridagi Ilg'or tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№10 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 1-uy, "Yangi O'zbekiston" universiteti huzuridagi Ilg'or tadqiqotlar instituti, tel.: +99871 202-41-11).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil "3" iyul dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi)

A.R. Hayotov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi o'rinbosari f.-m.f.d., DSc, professor

H.E. Eshquvatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi f.-m.f.b.f.d., PhD, katta ilmiy xodim

B.M. Narzilloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., DSc, katta ilmiy xodim

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Bugungi Qora o‘ralar kuchli gravitatsion maydon rejimida umumiy nisbiylik nazariyasini tekshirish uchun eng muhim obyektlardan biri hisoblanadi. Ularning fazo-vaqt geometriyasi, gorizont tuzilishi, termodinamik xatti-harakati va zarralar dinamikasi kompakt obyektlar yaqinida sodir bo‘ladigan kuzatiladigan astrofizik jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, sinov zarralarining harakati, akkretsiya bilan bog‘liq hodisalar hamda rentgen nurlanishida kuzatiladigan kvazidavriy tebranishlar qora o‘ralar va ularni o‘rab turgan muhitning fizik xossalarini o‘rganishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi astrofizik kuzatuvlar galaktikalarda qorong‘i moddaning taqsimoti kutilganidan ham xilma-xil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Qorong‘i modda miqdori juda kam bo‘lgan yoki qorong‘i modda komponenti aniq kuzatilmaydigan NGC 1052-DF2, NGC 1052-DF4, FCC 224 hamda qorong‘i modda yetishmaydigan spiral galaktikalar kabi bir qator tizimlar qorong‘i modda ta’siri astrofizik muhitga kuchli bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sonli modellashtirish natijalari ham bunday tizimlar tidal o‘zaro ta’sirlar va moddaning ajralib chiqishi kabi muhit bilan bog‘liq mexanizmlar natijasida yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ushbu natijalar kompakt obyektlar, ayniqsa qora o‘ralar atrofidagi mumkin bo‘lgan qorong‘i muhitlarni tavsiflovchi effektiv modellarni o‘rganishga asos bo‘ladi.

Umumiy nisbiylik nazariyasi doirasida mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i modda va Chaplygin-simon qorong‘i suyuqlik qora o‘ra fizikasiga qorong‘i muhitlarning ta’sirini o‘rganish uchun foydali effektiv tavsiflarni beradi. Mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i modda qora o‘ralar yaqinidagi qorong‘i modda effektlarini fenomenologik tarzda tavsiflash imkonini beradi, Chaplygin-simon qorong‘i suyuqlik esa qorong‘i moddaga o‘xshash va qorong‘i energiyaga o‘xshash xatti-harakatlar orasida o‘tuvchi muhit sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bunday maydonlar bilan o‘ralgan qora o‘ralarni o‘rganish tashqi qorong‘i muhitlarning kuchli gravitatsion xossalarga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun dolzarb hisoblanadi.

Mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i modda va Chaplygin qorong‘i suyuqligining mavjudligi qora o‘ralar atrofidagi fazo-vaqt tuzilishini o‘zgartirishi, hodisalar gorizontiga ta’sir qilishi hamda Hawking temperaturasi, entropiya va issiqlik sig‘imi kabi termodinamik kattaliklarni modifikatsiya qilishi mumkin. Ushbu maydonlar qora o‘ralar atrofida harakatlanayotgan zarralarning Kepler, radial va vertikal epitsiklik chastotalariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur fundamental chastotalar mikrokvazarlar va boshqa kompakt astrofizik tizimlarda kuzatiladigan kvazidavriy tebranishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularni tahlil qilish nazariy qora o‘ra modellarini kuzatuv ma’lumotlari bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiyaning zarurati qora o‘ralarni real astrofizik muhitlarda o‘rganish hamda qorong‘i modda va qorong‘i suyuqlik parametrlarining kuzatiladigan kuchli maydon signaturalariga qanday ta’sir qilishini aniqlash ehtiyoji

bilan belgilanadi. Xususan, zarralar dinamikasi, termodinamik xossalar, fundamental chastotalar va kvazi davriy tebranishlar (QPO) signaturalarini tadqiq etish umumiy nisbiylik nazariyasi doirasida qora o‘ra modellarini tekshirish va nazariy bashoratlarni astrofizik kuzatuvlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Shunday qilib, dissertatsiya qora o‘ra termodinamikasi, orbital harakat va kvazidavriy tebranishlarga mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i modda hamda Chaplygin qorong‘i suyuqligining ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu masalalar zamonaviy relyativistik astrofizika va kuchli gravitatsion maydon fizikasi muammolari qatoriga kiradi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2017-yil 18-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalarga mos keladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnikasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kerr, Reissner-Nordström, Hawking, Page, Born-Infeld va Maldacena ishlari nochiziqli elektrodinamika sharoitida qora o‘ralarni o‘rganishga muhim hissa qo‘shgan. Kerr va Reissner-Nordström metrikalari klassik yechimlarni beradi, Hawking va Page kvant effektlarni o‘rgangan, Born-Infeld va Maldacena esa muqobil nazariy yondashuvlarni taklif qilgan. Ushbu tadqiqotlar qora o‘ralarning elektromagnit xossalari va ularning koinotdagi o‘rni haqidagi tasavvurlarimizni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda Bobomurat Ahmedov, Ahmadjon Abdujabbarov, Javlon Rayimbaev, Farrux Atamuratov, Sanjar Shaymatov va Bobir Toshmatovning qora o‘ralarga oid ishlari zamonaviy astrofizika va nazariy fizika sohalarida muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlari qora o‘ralar atrofidagi nochiziqli elektromagnit maydonlarning ta’sirlarini o‘rganish orqali yangi fizik xossalarni ochib beradi va bu jarayonlarni astrofizik kuzatuvlar bilan bog‘laydi.

Mening dissertatsiyam nochiziqli elektrodinamika va mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i materiyaning qora o‘ra geometriyasi, gravitatsion va elektromagnit maydonlari, termodinamik xossalari hamda zarrachalar dinamikasiga birgalikdagi ta’sirlariga qaratilgan. Shuningdek, unda tashqi materiya maydonlarining fundamental chastotalar va kvazidavriy tebranish belgilariga ta’siri nazariy bashoratlarni astrofizik kuzatuvlar bilan solishtirish maqsadida tadqiq etiladi.

Dissertatsiya mavzusini ushbu mavzuda dissertatsiya olib borilayotgan oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ilmiy tadqiqot mavzusi va Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti ilmiy loyihalari:

FL-7923051796 “Sferik simmetrik gravitasion maydonlarda skalyar maydonlar dinamikasi va kvant nurlatkichlarni modellashtirish” (2024-2026) doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi: Chaplygin qorong‘i suyuqligi va mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i materiya mavjudligida qora o‘ralar atrofidagi astrofizik jarayonlarni ularning zarrachalar dinamikasi, fundamental chastotalari, termodinamik xossalari hamda QPO belgilarini o‘rganish orqali baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

• Chaplygin qorong‘i suyuqligi (CDF) bilan o‘ralgan qora o‘ralarning fazo-vaqt xossalarini o‘rganish;

• CDF mavjudligida qora o‘ralar atrofidagi sinov zarrachalari dinamikasi va barqaror aylana orbitalarni tahlil qilish;

• Mukammal suyuqlik qorong‘i materiyasi (PFDM) bilan o‘ralgan qora o‘ralarning fundamental chastotalarini hisoblash va QPO belgilarini o‘rganish;

• PFDM mavjudligida nochiziqli elektrodinamika (NED) bilan bog‘langan umumiy nisbiylik nazaryasi (GR) doirasida yangi qora o‘ra yechimlarini olish;

• NED va PFDM maydonlaridagi qora o‘ralarning termodinamik xossalari hamda fazaviy o‘tish xatti-harakatini o‘rganish;

• QPO ma’lumotlari va Monte Carlo Markov zanjiri (MCMC) tahlili yordamida qora o‘ra va uni o‘rab turgan maydon parametrlariga cheklovlar qo‘yish.

Tadqiqot obyektlari Mukammal suyuqlik qorong‘i materyasi va nochiziqli elektrodinamika maydoni ta’siridagi qora o‘ralar, ularning geometrik va termodinamik xossalari, test zarrachalarining orbital harakati, akretsion disk, Monte Carlo Markov zanjiri simulyatsiyalari yordamida mukammal suyuqlik qorong‘i materyasi va nochiziqli elektrodinamika maydoni parametrlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bu mukammal suyuqlik qorong‘i materyasi va nochiziqli elektrodinamika maydoni modellarining qora o‘ralar, test zarrachalari, akretsion disk va soyalariga ta’siri, shuningdek, bu modellar orqali qora o‘ralarning geometrik va termodinamik xossalari o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqot metodi bu nazariy fizika va astrofizika usullari, umumiy nisbiylik nazariyasi matematik apparati, hisoblash matematikasi metodlari, matematik fizika va statistik fizikaning zamonaviy metodlaridan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

• birinchi marta PFDM mavjudligida NED bilan bog‘langan GR doirasida ikki turdagi yangi qora o‘ra yechimlari olindi;

• birinchi marta qora o‘raning issiqlik sig‘imi NED maydoni va qorong‘i materiya ta’sirida fazaviy o‘tishlarga uchrashi ko‘rsatildi;

• birinchi marta mikrokvazarlar va yulduz massali qora o‘ralardan olingan QPO ma’lumotlari asosida MCMC tahlili orqali qora o‘ralar, NED va qorong‘i maydonlar, ya’ni Chaplygin qorong‘i suyuqligi hamda mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i materiya parametrlariga cheklovlar qo‘yildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Kuzatilgan QPO ma’lumotlari asosida MCMC modellashtirishlari yordamida Chaplygin tipidagi qorong‘i suyuqlik bilan o‘ralgan qora o‘ralarning parametrlari cheklangan. XTE

J1550–564, GRO J1655–40, GRS 1915+105, Sgr A* va M82 X-1 obyektlari uchun parametrlar $B = 5.311 \times 10^{-5}$–9.340×10^{-5}, $q = 0.651$–0.953 hamda $r/M = 3.057$–4.496 oraliqlarida olingan.

Mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i materiya bilan o‘ralgan magnit zaryadli qora o‘ralar uchun XTE J1550–564, GRS 1915+105, GRO J1655–40 va M82 X-1 obyektlarining kuzatilgan QPO ma’lumotlari parametrlarni $q/M = 0.0241$–0.0692 va $\lambda/M = 0.0203$–0.0281 oraliqlarida chekladi. Tegishli QPO orbital radiuslari $r/M = 6.0961$–7.3697 oraliqda aniqlangan.

NED va PFDM mavjudligida qora o‘ralarning issiqlik sig‘imi fazaviy o‘tish nuqtasida o‘z ishorasini o‘zgartirishi ko‘rsatildi. Bu natija termodinamik jihatdan nobarqaror va barqaror qora o‘ra konfiguratsiyalarini farqlash imkonini beradi. Shuning uchun olingan natijalardan QPO kuzatuvlari asosida qora o‘ra massasi, magnit zaryadi, qorong‘i suyuqlik parametrlari va PFDM parametrlarini baholashda amaliy foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika, hisoblash matematikasi va relyativistik astrofizikaning yaxshi shakllangan usullaridan foydalanish orqali ta’minlangan. Barcha hisoblashlar umumiy nisbiylik va qora o‘ra fizikasi doirasida bajarilgan. Olingan natijalar fazo-vaqt geometriyasi, gorizont tuzilishi, termodinamik kattaliklar, zarrachalar harakati, fundamental chastotalar va kvazidavriy tebranish belgilarining analitik chiqarilishi hamda sonli hisob-kitoblariga asoslanadi. Natijalarning to‘g‘riligi ma’lum chegaraviy holatlar, ilgari chop etilgan natijalar va mavjud astrofizik kuzatuv ma’lumotlari bilan taqqoslash orqali qo‘shimcha ravishda tasdiqlangan. Dissertatsiya xulosalari ixcham obyektlar astrofizikasi va kuchli maydon gravitatsiyasining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mukammal suyuqlik ko‘rinishidagi qorong‘i materiya, Chaplygin qorong‘i suyuqligi va nochiziqli elektrodinamikaning qora o‘ralar fizik xossalariga qanday ta’sir qilishini aniqlashtirishdan iborat. Xususan, dissertatsiyada ularning qora o‘ra geometriyasi, gorizont tuzilishi, termodinamik xatti-harakati, zarrachalar dinamikasi va fundamental chastotalarga ta’siri tadqiq etiladi. Ushbu natijalar tashqi materiya maydonlari bilan o‘ralgan qora o‘ralarni chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi hamda bunday muhitlar kuchli gravitatsion maydon jarayonlarini qanday modifikatsiya qilishi haqida nazariy tasavvur beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan qora o‘ra mimikerlari modeli yuqori energiyali astrofizik jarayonlarni tushuntirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Xususan, u qora o‘ralar soyasining o‘lchami va optik ko‘rinishi bo‘yicha yangi bashoratlarni beradi; bu bashoratlar Event Horizon Telescope kabi astrofizik kuzatuvlar orqali tekshirilishi mumkin. Ushbu natijalar astrofizik parametrlarni yanada aniqroq aniqlash va kelajakdagi kuzatuv ishlarini yo‘naltirishda qo‘llanishi mumkin. Bundan tashqari, PFDM va NED modellariga asoslangan nazariy yondashuvlar kosmik tizimlarning ishlash mexanizmlarini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari yangi kosmik observatoriyalarni ishlab chiqish yoki mavjud texnologiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy ahamiyati esa astrofizik kuzatuvlar, masalan, Hodisalar Gorizonti Teleskopi orqali qora o‘ralarning soya o‘lchamlari va optik ko‘rinishiga oid yangi bashoratlarni yaratishga xizmat qiladi. Bu natijalar astrofizik parametrlarni aniqlash va yangi kuzatuvlarni amalga oshirishda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, suyuqlik qorong‘i materyasi va nochiziqli elektrodinamika maydoni modellariga asoslangan nazariy yondashuvlar kosmik tizimlarning ishlash mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga olib keladi. Tadqiqot natijalari yangi kosmik observatoriyalarni yaratish yoki mavjud texnologiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini qo‘llash. “Tashqi materiya maydonlari mavjudligida qora o‘ralarning fundamental chastotalari va termodinamik xossalari” nomli tadqiqotning natijalari quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilgan:

- Ekzotik materiyaning ta’siridagi qora o‘ralarning asosiy tebranish chastotalari va termodinamik xossalarini o‘rganishda ushbu yondashuv bir qator mualliflar tomonidan tadqiqotlarda qo‘llanilgan: Li Xiang-Qian, Kim Yoonbai, Lee Bum-Hoon, Yan Hao-Peng, Yue Xiao-Jun. “Black holes immersed in modified Chaplygin-like dark fluid and cloud of strings: geodesics, shadows, and images”, Chinese Physics C, 2025. Javed Faisal, Waseem Arfa, Mustafa G., Fatima Ghulam, Alkarni Shalan. “Particle motion and thermal fluctuations of charged AdS black holes surrounded by exotic fluid with modified Chaplygin equation of state”, Physics of the Dark Universe, vol. 47, 2025. Turimov Bobur, Rahimov Ozodbek, Davlataliev Akbak, Tadjimuratov Pulat, Norkobilov Mukhiddin, Rahimova Shakhzoda. “Analysing geodesic motion in Bocharova–Bronnikov–Melnikov–Bekenstein spacetime”, Physics of the Dark Universe, vol. 48, 2025, 101855. Erdem Sucu, Izzet Sakallı. “Astrophysical reality of black hole thermodynamics and dynamics: Transformative influence of Hernquist dark matter distributions”, Physics of the Dark Universe, vol. 49, 2025, 102051.

- Zarrachalar va fotonlarning harakatiga oid olingan ilmiy natijalar 2025-yil 23-may kuni Shanxaydagi Fudan universiteti (Fudan University, FU) olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlarda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va mahalliy ilmiy konferensiyalarda ma’ruza qilindiva tezis chop etilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. PhD tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan 7 ta ilmiy maqolalarda taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi “**Chaplyginga o'xshash qorong'u materiya bilan o'ralgan qora o‘ralar: fazo - vaqt xususiyatlari va kvazperiodik tebranish sinovlari**” deb nomlangan birinchi bobida keyingi boblar uchun asos bo‘ladigan tushunchalar va natijalar berilgan. Shuningdek, Chaplyginga o‘xshash holat tenglamalari ko‘rib chiqilgan. Qora o‘ra yechimi uchun sferik simmetrik metrika quyidagicha tanlanadi:

$$ds^2 = -f(r)dt^2 + \frac{1}{f(r)}dr^2 + r^2(d\theta^2 + \sin^2\theta d\phi^2). \quad (1)$$

Bu yerda $f(r)$ — radial koordinataga bog‘liq bo‘lgan metrik funksiya hisoblanadi. Chaplygin qorong‘i (mukammal) suyuqligi uchun holat tenglamasining nolinyar xatti-harakatini $p = -B/\rho$ shaklida ko‘rib chiqiladi. Bunda radial va tangensial bosimlar mos ravishda $p_r = -\rho$ va $2p_t = \rho - 3B/\rho$ tarzida aniqlanadi; bu yerda $B > 0$ bo‘lgan ijobiy doimiydir. Zichlik ρ va bosimlar radial masofaga bog‘liqdir. Suyuqlik uchun stress-energiya tenzori va unga mos Eynshteyn tenzori quyidagi ko‘rinishda qo‘llaniladi:

$$T_t^t = T_r^r = -\rho, T_\theta^\theta = T_\phi^\phi = \frac{1}{2}\left(\rho - \frac{3B}{\rho}\right), \quad (2)$$

va

$$G_t^t = G_r^r = \frac{1 - rf' - f}{r^2}, G_\theta^\theta = G_\phi^\phi = \frac{2f' + rf''}{2r}, \quad (3)$$

mos ravishda. 2 va 3 tenglamalaridan foydalanib, quyidagi tenglamalar tizimini hosil qilish mumkin:

$$f + rf' - 1 = -\rho r^2, \qquad \frac{1}{r}(2f' + rf'') = \rho - \frac{3B}{\rho}. \quad (4)$$

Yuqoridagi tenglamadan quyidagicha natijani bevosita olish mumkin:

$$\rho^2 = B + \frac{q^2}{r^6}, \quad (5)$$

bu yerda q— integrallash konstantasi bo‘lib, musbat normallash omili CDF intensivligini ifodalaydi. Geometrik birliklarda zichlikning birligi $[\rho] = cm^{-2}, [B] = cm^{-4}$ va $[q] = cm$ ga teng. XBS tizimida esa Chaplygin holat tenglamasidagi B parametrining birligi: $\mathrm{kg}^2/(\mathrm{m}^4\ \mathrm{s}^2)$.


Oddiy algebraik tahlil shuni ko‘rsatadiki, $q \to 0$ bo‘lganda yoki katta masofalarda$\rho \simeq \sqrt{B}$ bo‘ladi, ya’ni zichlik asosan B ga bog‘liq bo‘ladi. Aksincha, $B \to 0$ bo‘lganda yoki kichik masofalarda $(r^6 \ll q^2/B)$ esa $\rho \simeq q/r^3$ ga yaqinlashadi, ya’ni zichlik kuchli radial bog‘liqlikka ega bo‘ladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib 4 tenglamani yechish orqali quyidagicha hosil qilinadi:

$$f(r) = 1 - \frac{2M}{r} - \frac{r^2}{3}\sqrt{B + \frac{q^2}{r^6}} + \frac{q}{3r}\operatorname{arcsinh}\frac{q}{\sqrt{B}r^3}. \quad (6)$$

Bu yerda M - qora o‘ra massasi, q esa Chaplygin qorong‘i suyuqligining intensivligini ifodalovchi miqdor bo‘lib, ijobiy qiymatlar qabul qiladi. Chaplygin


qorong‘i suyuqligi uchun holat tenglamasi parametri B ijobiy doimiy bo‘lib, $p = -B/\rho$ tenglama orqali aniqlanadi. Suyuqlik bilan birga harakatlanayotgan kuzatuvchi uchun ρ - energiya zichligini, p esa izotrop bosimni bildiradi. Agar $B = q = 0$ bo‘lganda fazo-vaqt metrikasi Schwarzschild holatiga o'tadi.



1-rasm. *Metrik funksiyasining radial masofaga bog‘liqligi q va B ning turli qiymatlarida*

Turli B va q parametr qiymatlarida metrik funksiyaning radial profillari 1-rasmda ko‘rsatilgan. q=0 bo‘lgan holatda ikki gorizont voqea gorizonti va kosmologik gorizont kuzatiladi. Biroq q noldan farqli bo‘lsa, ichki (Koshi) gorizonti paydo bo‘ladi. Shuningdek, q parametrining maksimal chegaraviy qiymati mavjud bo‘lib, bu qiymat oshirilsa Koshi va voqea gorizontlari yo‘qoladi, ammo kosmologik gorizont saqlanib qoladi.

Qora o‘ra atrofidagi geometriyaga holat tenglamasi parametrlari ta’sirini o‘rganish uchun biz voqea gorizontini ko‘rib chiqamiz. Bu gorizontni $f(r) = 0$ tenglamasi orqali tahlil qilish mumkin.



2-rasm. *Voqea gorizonti radiusining q parametriga bog‘liqligi B ning turli qiymatlari uchun.*

Voqea gorizonti radiusining q parametriga bog‘liqligi, B ning turli qiymatlarida, 2-rasmda ko‘rsatilgan. Grafikni chizishda barcha fizik kattaliklar qora o‘ra massasi bo‘yicha normallashtirildi va M = 1 deb olindi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, B parametri ortganda voqea gorizonti radiusi ham ortadi. Aksincha, q parametri oshganda voqea gorizonti kichrayadi, bu esa q parametri antigravitatsion ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, q ning yuqori chegaraviy qiymati mavjud bo‘lib, shu qiymatda voqea gorizonti va Koshi (ichki) gorizonti birlashadi. B ortganda bu yuqori chegaraviy qiymat oshadi, va voqea gorizontining minimal qiymati kamayadi. B = 0 holatda, q =0.25 dan kichik bo‘lgan qiymatlar uchun ichki gorizont mavjud emas.

Asosiy chastotalar. Endi o‘zgartirilgan Schwarzschild qora tuynugi atrofida sinov zarrachalarning asosiy (fundamental) chastotalari muhokama qilaylik. Bunda egizak cho‘qqili yuqori chastotali quasiperiodik tebranishlar uchun yuqori va past chastotalarning ehtimoliy qiymatlarini quyidagi modellar yordamida o‘rganish. Bu modellarda sinov zarrachalarining qora o‘ra atrofidagi harakatining fundamental chastotalari quyidagicha ifodalanadi: $\nu_{r,\theta,\phi} = c^3/(2\pi GM)\Omega_{r,\theta,\phi}$. Test zarracha ekvatorial tekislikdagi aylana orbitasi quyidagi uchta asosiy chastota bilan tavsiflanadi:

1. Orbital chastota (yoki Kepler chastotasi) ν_ϕ – bu orbitaning aylanish davriga teskari bo‘lgan chastota hisoblanadi.

2. Radial epitsiklik chastotaν_r – zarrachaning orbitasi atrofida radial (ya’ni qora o‘raka yaqinlashish va uzoqlashish yo‘nalishida) tebranish chastotasi.

3. Vertikal epitsiklik chastota ν_θ – zarrachaning vertikal (qutb yo‘nalishida) orbitaga nisbatan yuqoriga va pastga bo‘lgan tebranish chastotasi.

Ushbu uchta chastota faqat fazo-vaqt metrikasi va orbita radiusiga bog‘liq. Garchi ular erkin zarrachaning orbital harakati uchun aniqlangan bo‘lsa-da, bu chastotalar akretsion diskdagi suyuqlikning tebranish modlari bilan ham bevosita bog‘liq.

Sinov zarrachaning Kepler (orbital) chastotasini o‘rganish uchun geodezik tenglamadan foydalaniladi:

$$\ddot{x}^\alpha + \Gamma^\alpha_{\mu\nu}\dot{x}^\mu\dot{x}^\nu = 0, \tag{7}$$

bu yerda $\Gamma^\alpha_{\mu\nu}$ - Kristoffel simvollari va $\dot{x} = \dot{t}(1,0,0,\Omega)$ - zarrachaning tezligi. Harakat tenglamasidan sinov zarrachalari uchun quyidagi tenglama olinadi:

$$\partial_r g_{tt} + \Omega^2\partial_r g_{\phi\phi} = 0, \tag{8}$$


va ushbu tenglamaning Kepler chastotasi Ω_K uchun yechimi quyidagicha ifodalanadi:

$$\Omega_K^2 = \frac{M}{r^3} - \frac{1}{3r^3}\sqrt{Br^6 + q^2} - \frac{q}{6r^3}\operatorname{arcsinh}\frac{q}{\sqrt{B}r^3}. \tag{9}$$

Asosiy chastotalarning son qiymatini hisoblash uchun ular bilan bog‘langan birlik Gerts (Hz) sifatida quyidagi formula ishlatiladi:

$$\nu = \frac{1}{2\pi}\frac{c^3}{GM}\Omega, [\text{ Hz}], \tag{10}$$

bu yerda yorug‘lik tezligi $c = 3\cdot 10^8$ m/sec va tortishish doimiysi $G = 6.67\cdot 10^{-11}$ $\text{m}^3/(\text{kg}^2\cdot\text{sec})$ deb olingan.



3-rasm. *Rasmda Ω_K ning radial bog‘liqligi q va B ning turli qiymatlarida.*

Zarrachalarning Kepler orbitasidagi burchak impulsining radial bog‘liqligi 3-rasmda q va B parametrlari o‘zgarishi orqali ko‘rsatilgan. Shundan ko‘rinadiki, q parametri mavjud bo‘lgan holatda Kepler chastotasi Schwarzschild holatiga nisbatan ortadi. Aksincha, holat tenglamasi parametri bu chastotani kamaytiradi. Qorong‘i suyuqlikning intensivlik parametri chastotaga uzoq masofalarda sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Qora o‘ra atrofida ekvatorial tekislikda harakatlanayotgan sinov zarrachalari barqaror orbitadan kichik siljish tufayli radial va vertikal yo‘nalishlarda tebranadi, ya’ni orbitalar $r_0 + \delta r$ va $\pi/2 + \delta\theta$ ko‘rinishida ifodalanadi.Radial va vertikal tebranish chastotalarini quyidagi garmonik osillatordan olingan tenglamalar yordamida hisoblash mumkin:

$$\frac{d^2\delta r}{dt^2} + \Omega_r^2 \delta r = 0, \frac{d^2\delta\theta}{dt^2} + \Omega_\theta^2 \delta\theta = 0, \tag{11}$$

bu yerda

$$\Omega_i^2 = -\frac{1}{2g_{ii}(u^t)^2}\,\partial_i^2 V_{\text{eff}}(r,\theta)\Big|_{\theta=\frac{\pi}{2}}, i = r, \theta \tag{12}$$


Yuqoridagi tenglamadan radial va vertikal burchak chastotalari hisoblanadi. Ba’zi algebraik amallarni bajargach, quyidagi ifodalar hosil bo‘ladi:

$$\Omega_r^2 = \Omega_{\text{K}}^2 \left\{ \frac{4\sqrt{q^2 + Br^6} - 12M + 2q\text{ArcSinh}\left(\frac{q}{\sqrt{B}r^3}\right)}{3r} \right.$$

$$+ \frac{\left(6M - 3r + \sqrt{q^2 + Br^6} - q\text{ArcSinh}\left(\frac{q}{\sqrt{B}r^3}\right)\right)}{6r\sqrt{q^2 + Br^6} - 18Mr + 3qr\text{ArcSinh}\left(\frac{q}{\sqrt{B}r^3}\right)}$$


$$\left. \times \left(6Mr^3 + \frac{q^2 - 8Br^6}{\sqrt{q^2 + Br^6}} - q\text{ArcSinh}\left(\frac{q}{\sqrt{B}r^3}\right) \right) \right\}.$$

4-rasmda Ω_r ning radial masofa bo‘yicha grafigi o‘zgarmas B qiymatida keltirilgan. Grafikdan ko‘rinadiki, Ω_r parametri q oshgani sayin ortadi, holat tenglamasi parametri esa bu chastotani kamaytiradi.



4-rasm. *Ω_r ning radial masofaga bog'liqligi*

Stella va Vietri birinchi bo‘lib kichik massa yulduzlar bilan bog‘langan neytron yulduzlar uchun 0.2–1.25 kHz chastota oralig‘idagi kHz egizak cho‘qqili QPO larni tavsiflovchi nisbiylik pretsessiyasi (RP) modelini taqdim etgan. Ushbu model qora o‘rali ikkilik tizimlar uchun ham qo‘llaniladi va qora o‘ra atrofidagi akretsiya diskining quvvat-zichlik spektri asosida mikrokvazarlardagi markaziy qora o‘ra massasini va aylanish momentini aniq aniqlash imkonini beradi. RP modelida yuqori va pastki chastotalar akretsiya diskidagi zarrachalarning eng ichki barqaror orbita (ISCO) yaqinidagi radial, vertikal va orbital tebranish chastotalari bilan belgilanadi: $\nu_U = \nu_\phi$ va $\nu_L = \nu_\phi - \nu_r$.




5-rasm. *Chaplygin tipidagi holat tenglamasiga ega bo‘lgan qorong‘i suyuqlik (CDF) bilan o‘ralgan Schwarzschild qora tuynugi atrofidagi yuqori va pastki chastotalar orasidagi bog‘liqlik q va B parametrlarining turli qiymatlari uchun ko‘rib chiqilgan.*

6-rasmda $\nu_U - \nu_L$ diagrammalari qora o‘ra metrikasi asosida egizak cho‘qqili QPO lar uchun RP model doirasida ko‘rsatilgan hamda bu natijalar Schwarzschild qora tuynugi atrofidagi QPO lar bilan taqqoslangan. Bu yerda markaziy qora o‘raning massasi test yulduz-massali qora o‘ra sifatida $M = 5M_\odot$ deb olingan. Diagrammadagi och moviy soya bilan belgilangan hudud egizak cho‘qqili QPO lar uchun “qabrzonasi”ni bildiradi, ya’ni bu sohada bunday QPO lar kuzatilmaydi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, q mavjud bo‘lgan holatda past chastotali QPO lar mavjud emas. Holat tenglamasi parametri B ortgani sari yuqori va pastki chastotalar kilohertz diapazoniga yaqinlashib ortadi. Biroq q parametri oshganda bu chastotalar kamayadi. Bu esa B va q parametrlari orasida teskari bog‘liqlik mavjudligini

bildiradi: ular bir xil yuqori va pastki chastotalarni ta’minlaydi, ammo qarama-qarshi yo‘nalishda ta’sir qiladi.

Bu yerda biz RP modeli doirasida egizak cho‘qqili QPO sodir bo‘ladigan ISCO dan tashqaridagi orbitallarni o‘rganamiz. Bunda quyidagi tenglamalar to‘plami ishlatiladi: $m\nu_L(M,r,q) = n\nu_U(M,r,q)$, bu yerda$m$ va n - butun sonlar bo‘lib, ular yuqori ν_U va pastki ν_L chastotalar orasidagi rezonans nisbatlarini bildiradi. Bu usul orqali qora o‘ra atrofida mavjud bo‘lgan barqaror rezonans orbitallari aniqlanadi, bu esa QPO larni chuqurroq tushunishga yordam beradi.



6-rasm. *QPO radiusining q parametriga bog‘liqligi*

6-rasmda QPO orbitasining qorong‘i suyuqlik intensivligi parametri q ga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, q parametri ortgani sayin QPO radiusi kamayadi va ISCO ga yaqinlashadi. RP modeli doirasida bu orbitaning ISCO bilan deyarli ustma-ust tushishi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi “**Nochiziqli elektrodinamika va mukammal suyuq qorong‘i materya bilan o‘ralgan qora o‘ralar: Fazoviy barqarorlik va termodinamika**” deb nomlangan bobida, nochiziqli elektrodinamika va mukammal suyuq qorong‘i modda bilan o‘ralgan qora o‘ra yechimi keltirigan. Shuningdek, berilgan qora o‘raning termodinamik xossalari muhokama qilingan.

Umumiy nisbiylik nazariyasi doirasida nochiziqli elektrodinamika maydoni va mukammal suyuq qorong‘i modda bilan bog‘langan, sferik simmetrik fazoda qaralgan qora o‘ra yechimiga qisqacha kirish beriladi, bu yerda ansats quyidagicha tanlangan.

$$ds^2 = -e^{\nu(r)}dt^2 + e^{\Lambda(r)}dr^2 + r^2(d\theta^2 + \sin^2\theta d\phi^2). \qquad (13)$$

Singular bo‘lmagan qora o‘ra fazolarining kengaytmalari umumiy nisbiylik va nochiziqli elektrodinamika juftligida ko‘plab tadqiq qilingan. Biroq biz bu yerda mukammal suyuq qorong‘i modda deb ataluvchi ekzotik maydon ishtirokidagi GR + NED tizimida paydo bo‘ladigan yangi qora o‘ra yechimini ko‘rib chiqamiz. Mos keluvchi harakat tenglamasi quyidagicha:

$$\mathcal{S} = \frac{1}{16\pi}\int d^4x\sqrt{|g|}(\mathrm{R} - \mathcal{L}_{\mathrm{NED}} + \mathcal{L}_{\mathrm{PFDM}}) \qquad (14)$$

bu yerda R — Richchi skalyar, g — metrik tensor $g_{\mu\nu}$ determinantasi. NED maydoni uchun Lagrangian quyidagicha berilgan

$$\mathcal{L}_{\mathrm{NED}} = \frac{4\mu}{\alpha}\frac{(\alpha\,\mathrm{F})^{(\nu+3)/4}}{[1+(\alpha\mathrm{F})^{\nu/4}]^{1+\mu/\nu}} \qquad (15)$$

bu yerda α- bog‘lanish parametri, $F = F_{ab}\, F^{ab}$ esa elektromagnit maydonning Faradey tensori invariantidir. Materiya Lagrangiani mavjud bo‘lmagani uchun, Shvartsshild koordinatalarida energiya-impuls tensori faqat $\mathcal{L}_{\mathrm{NED}}$ ga bog‘liq bo‘ladi.

$$G_{\mu\nu} = R_{\mu\nu} - \frac{1}{2} R g_{\mu\nu} = T_{\mu\nu}^{(\mathrm{NED})} + T_{\mu\nu}^{(\mathrm{PFDM})}. \tag{16}$$

bu yerda ideal suyuqlik uchun energiya-impuls tensori

$$T_{\mu\nu}^{(\mathrm{PF})} = (\rho + p) u_\mu u_\nu + p g_{\mu\nu.} \tag{17}$$

PFDM holatida esa faqat standart ortogonal bazaga ega bo‘lib,

$$T_{\mu\nu}^{(\mathrm{PFDM})} = \mathrm{diag}\left(-\epsilon, p_r, p_\theta, p_\phi\right). \tag{18}$$

bu yerda

$$-\epsilon = p_r = \frac{\lambda}{8\pi r^3}, \qquad p_\theta = p_\phi = -\frac{\lambda}{16\pi r^3}. \tag{19}$$

Nochiziqli elektrodinamika uchun energiya-impuls tensori

$$4\pi T_{\mu\nu}^{(\mathrm{NED})} = -2 \frac{\partial \mathcal{L}_{\mathrm{NED}}}{\partial F} F_\mu^\beta F_{\nu\beta} + \mathcal{L}_{\mathrm{NED}} g_{\mu\nu}. \tag{20}$$

NED maydonining noldan farqli diagonal komponentalari

$$T_0^0 = T_1^1 = -\frac{2\mu M q^\nu r^{\mu-3}}{(q^\nu + r^\nu)^{\frac{\mu+\nu}{\nu}}},$$

$$T_2^2 = T_3^3 = \frac{\mu M q^\nu r^{\mu-3}}{(q^\nu + r^\nu)^{\frac{\mu}{\nu}+2}} [(\nu+1) r^\nu - (\mu-1) q^\nu]. \tag{21}$$

Maydon tenglamasini yechish uchun avval ansatz

$$e^{\nu(r)} = e^{-\Lambda(r)} = f(r). \tag{22}$$

bo‘yicha Einstein tenzorining $$G_{tt}$$ komponentasini hisoblaymiz:

$$G_0^0 = G_1^1 = -\frac{1}{r}\frac{df(r)}{dr} - \frac{f(r)}{r^2} + \frac{1}{r^2},$$

$$G_2^2 = G_3^3 = -\frac{1}{2}\frac{d^2 f(r)}{dr^2} - \frac{1}{r}\frac{df(r)}{dr}.$$

Statik va sferik simmetrik fazo hamda magnit zaryadi q ga ega NED manbasi $F_{\mu\nu} = \left(\delta_\mu^\theta \delta_\nu^\phi - \delta_\nu^\theta \delta_\mu^\phi\right) q \sin\theta$ uchun f(r) uchun differensial tenglama hosil bo‘ladi:

$$\frac{1}{r}\frac{df(r)}{dr} + \frac{f(r)}{r^2} + \frac{1}{r^2} = \frac{2\mu M q^\nu r^{\mu-3}}{(q^\nu + r^\nu)^{\frac{\mu+\nu}{\nu}}} - \frac{\lambda}{8\pi r^3}. \tag{23}$$

Buning yechimi

$$f(r) = \frac{-2M r^\mu (q^\nu + r^\nu)^{-\frac{\mu}{\nu}} + \lambda \ln r + r}{r} + \frac{c_1}{r}. \tag{24}$$

Soddalashtirsak


$$f(r) = 1 - \frac{2M}{r}\left(1 + \frac{q^\nu}{r^\nu}\right)^{-\frac{\mu}{\nu}} + \frac{\lambda \ln r}{r} + \frac{c_1}{r}. \tag{25}$$

Logarifmik haddagi ifoda o‘lchamsiz bo‘lishi lozim, shu bois $c_1 = -\lambda \ln |\lambda|$

deb olamiz va metrik funksiyaning yakuniy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:


$$f(r) = 1 - \frac{2M}{r}\left(1 + \frac{q^{\nu}}{r^{\nu}}\right)^{-\frac{\mu}{\nu}} + \frac{\lambda}{r}\ln\frac{r}{|\lambda|}. \qquad (26)$$

Endi biz olingan qora o‘ra yechimining gorizont xossalarini grafik tarzda tahlil qilamiz.



7-rasm. *Metrika funksiyasining radial bog‘liqligi turli μ va ν qiymatlari uchun, λ va q ning doimiy qiymatlarida tahlil qilinadi.*

Qora o‘ra atrofidagi metrika funksiyasining turli parametrlar ta’sirida qanday o‘zgarishi 7-rasmda ko‘rsatilgan. NED parametrlarining ortishi fazovaqt egriligini kamaytiradi va qora o‘raning barqarorligini oshiradi. Zaryadning ortishi elektromagnit maydonini kuchaytiradi va hodisalar ufqining kengayishiga olib keladi. PFDM esa fazovaqtni cho‘zadi va qora o‘ra tashqarisidagi dinamik ta’sirlarni susaytiradi. Ushbu grafiklar parametrlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ochib beradi va qora o‘ra atrofidagi fazovaqt tuzilmasi haqida muhim tasavvurlar beradi



8-rasm. *Hodisalar ufqi radiusi μ va ν ning berilgan qiymatlari uchun aniqlanadi*

Rasmda berilgan grafiklar to‘plami hodisalar ufqi radiusi r_H ning turli parametrlar - λ va q- ga bog‘liqligini, μ *va* ν parametrlarining har xil kombinatsiyalarida tasvirlaydi. Yuqori qator grafiklar r_H ning λ ga bog‘liqligini, pastki qator esa r_H ning q ga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Har bir ustun esa μ *va* ν ning turli qiymatlariga mos keladi. Har bir grafikning o‘ng tomonidagi rangli panel uchinchi parametr - λ yoki q - qiymatini bildiradi.

Grafiklar shuni ko‘rsatadiki, hodisalar ufqi radiusi λ ning ma’lum bir qiymatida minimumga ega bo‘ladi. Bu minimum qiymat μ *va* ν qiymatlariga qarab o‘zgaradi. ν ortgani sayin boshlang‘ich hodisalar ufqi radiusi oshadi, ya’ni ν ortishi qora o‘ra hajmini kattalashtiradi. μ ning ortishi ham r_H ni oshiradi, biroq bu ta’si ν nikiga nisbatan kuchsizroq.

Grafiklardagi U-shaklidagi egri chiziqlar λ o‘zgarganida hodisalar ufqi radiusining minimal qiymatini aks ettiradi. Ushbu minimal qiymat μ *va* ν ning har xil qiymatlarida har xil λ da yuzaga chiqadi. Grafiklar shuni ko‘rsatadiki, λ ortishi avval r_H ni kamaytiradi, so‘ngra yana oshiradi.

Barcha grafiklarda kuzatiladiki, q ortganda hodisalar ufqi radiusi r_H umumiy holda kamayadi. Bu esa shuni anglatadiki, magnit zaryad q ortgani sari qora o‘raning hodisalar ufqi kichrayadi.


Exotik modda bilan o‘ralgan qora o‘ralarning termodinamikasi**.** $f(r_h)=0$ tenglamasini yechish orqali hodisalar ufqi radiusi r_h aniqlanadi va bu yordamida qora o‘raning massasi quyidagicha ifodalanadi:

$$M=\frac{1}{2}\left(1+\frac{q^{\nu}}{r_h^{\nu}}\right)^{\frac{\mu}{\nu}}\left(r_h+\lambda\ln\frac{r_h}{|\lambda|}\right). \tag{27}$$

Hawking harorati T_h esa sirt tortishish kuchi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$T_h=\left.\frac{f'(r)}{4\pi}\right|_{r=r_h}=\frac{1}{4\pi}\left[\frac{2M}{r_h^2}\left(1+\frac{q^{\nu}}{r_h^{\nu}}\right)^{-\frac{\mu}{\nu}}+\frac{2M\mu q^{\nu}}{r_h^{2+\nu}}\left(1+\frac{q^{\nu}}{r_h^{\nu}}\right)^{-\frac{\mu}{\nu}-1}-\frac{\lambda}{r_h^2}\left(1+\ln\frac{r_h}{|\lambda|}\right)\right]. \tag{28}$$

9-rasmida ekzotik materiya bilan o‘ralgan va NED zaryadi bo‘lgan qora o‘raning harorati tasvirlangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, qora o‘ra harorati T_h avval ortib, maksimum qiymatga yetadi, so‘ngra kamayish bosqichiga o‘tadi. Bundan tashqari, grafik maksimum qiymatning qorong‘i modda parametri λ kattaroq bo‘lganida yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatadi.



9-rasm. *Qora tuynuk harorati T_h va hodisa gorizonti radiusi r_h o‘rtasidagi bog‘liqlik, bunda qorong‘i modda parametri λ va qora tuynuk zaryadi q ning termal evolyutsiyaga ta’siri ko‘rsatilgan.*

Tadqiq qilinayotgan qora o‘ra uchun qora o‘ra termodinamikasining birinchi qonuni quyidagicha yoziladi:

$$dM=T_h dS_0+\Phi_h dq+\beta_h d\lambda. \tag{29}$$


bu yerda S_0 - korreksiyalanmagan entropiya; q — magnit zaryad; λ —ekzotik materiya parametri. Entropiyaning korreksiyalanmagan formulasi S_0 quyidagicha aniqlanadi:

$$S_0 = \int \frac{1}{T_h} dM = \int \frac{1}{T_h} \frac{\partial M}{\partial r_h} dr_h. \qquad (30)$$

Endi biz muvozanat holatidagi korreksiyalangan entropiya S ni hisoblaymiz. Uning umumiy formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$S = S_0 - \beta \ln (S_0 T_h).$$

Bu yerda β — korreksiya parametri bo‘lib, faqat ikki xil qiymatga ega bo‘ladi. Agar β = 0 bo‘lsa, tenglama korreksiyalanmagan entropiyani bildiradi; β = 1/2 bo‘lganda esa, termal tebranishlar hisobga olingan korreksiyalangan entropiyani ifodalaydi.



10-rasm. *Entropiyaning qora o‘ra hodisalar ufqi radiusiga bog‘liqligi turli μ va ν qiymatlari uchun ko‘rib chiqiladi. Bu yerda β = 0 (korreksiyasiz holat) pastki panelda, β = 1/2 (korreksiya bilan) esa yuqori panelda tasvirlangan.*

10-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ushbu grafik orqali berilgan qora o‘ra uchun korreksiyalangan entropiya bilan muvozanatdagi entropiyani solishtirish mumkin. Agar korreksiya parametri β mavjud bo‘lmasa, tizimning muvozanatdagi entropiyasi pastki panelda ko‘rsatilganidek chiziqli ortuvchi funksiyadir.

Agar korreksiya parametri β = 1/2 bo‘lsa, tizimning korreksiyalangan entropiyasi har doim musbat qiymatga ega bo‘ladi, bu esa tizim barqarorligi uchun muhimdir. Korreksiyalangan entropiya kritik hodisa radiusidan pastda kamayuvchi funksiyadir, biroq bu nuqtadan yuqorida u har doim ortib boradi. Shu sababli, yirik qora o‘ralar uchun korreksiya entropiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Biroq kichik qora o‘ra tizimlarida termal tebranishlar sezilarli bo‘lganligi sababli, korreksiya hadi tizim entropiyasiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Doimiy hajmda maxsus issiqlik sig‘imi C quyidagicha aniqlanadi:


$$C = T_h \left(\frac{\partial S}{\partial T_h} \right). \qquad (31)$$

Entropiya S bilan Hawking harorati T_h orasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun bizga r_h ga bog‘liq ifodalar kerak bo‘ladi.

Qora o‘ra ikkinchi tartibli fazaviy o‘tish jarayonidan o‘tadi, bu esa qora o‘raning barqaror fazadan (C > 0) beqaror fazaga (C < 0) o‘tishini bildiradi.

Qora o‘raning issiqlik sig‘imi C ning hodisalar ufqi radiusiga bog‘liq o‘zgarishini 11-rasm tasvirlaydi va turli zaryad hamda ekzotik materiya parametri qiymatlarida qora o‘ra yechimi termodinamik barqarorligini ko‘rsatadi.

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, issiqlik sig‘imida uzilishlar mavjud — bu ikkinchi tartibli fazaviy o‘tishlar mavjudligini bildiradi. Ushbu o‘tishlar turli termodinamik fazalarni bir-biridan ajratadi: Kichik qora o‘ralar uchun (r_h uzilish nuqtasidan kichik), issiqlik sig‘imi manfiy bo‘lib, ular termal jihatdan beqaror hisoblanadi. Bu holat qora o‘ra Hawking nurlanishi orqali massasini yo‘qotadigan bug‘lanish bosqichiga mos keladi. Katta qora o‘ralar uchun (r_h o‘tish nuqtasidan katta), issiqlik sig‘imi musbat bo‘lib, termodinamik barqaror muvozanat fazasiga o‘tilganini bildiradi.



11-rasm. *Nochiziqli qora o‘raning issiqlik sig‘imi C ning ideal suyuqlik qorong‘i modda fonidagi o‘zgarishi quyidagicha tavsiflanadi.*

Qora o‘ra zaryadi ortgani sayin fazaviy o‘tish nuqtasi siljiydi, bu esa kuchliroq NED ta’siri qora o‘raning termodinamik tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Zaryad ortishi barqaror fazaning kengayishiga olib keladi va qora o‘ra bug‘lanishi ehtimolini kamaytiradi.

Ekzotik materiya parametrining ortishi esa barqarorlik xossalarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Uning yuqori qiymatlari fazaviy o‘tishni kattaroq hodisalar ufqiga siljitadi, bu esaEkzotik materiya mavjudligi katta qora o‘ralar uchun barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashini anglatadi. Bu Ekzotik materiya muhiti bilan o‘ralgan qora o‘ralar vakuum yoki oddiy qorong‘i modda modellaridagilarga nisbatan bug‘lanishga kamroq moyil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Astrofizik nuqtai nazardan, ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Ekzotik materiya ta’siri kuchli bo‘lgan muhitdagi qora o‘ralar uzoq umr ko‘rishga moyil bo‘lib, termodinamik barqaror fazaga o‘tish kattaroq hodisalar ufqida yuz beradi. Bundan tashqari, Ekzotik materiya qora o‘raning issiqlik jarayonini o‘zgartirib, akretsion disk dinamikasi, qora o‘ra birikmalari va termal tebranishlarga bog‘liq kuzatuv belgilariga ta’sir qilishi mumkin.

Yaxshi aniqlangan ikkinchi tartibli fazaviy o‘tishlar bunday qora o‘ralarning nooddiy barqarorlik xususiyatlariga ega ekanligini ko‘rsatadi va ularni klassik Schwarzschild yoki Reissner–Nordström qora o‘ralardan farqlaydi. Kelajakdagi kuzatuv sinovlari, masalan qora o‘ra soyasini o‘lchash yoki akretsion diskdan chiqqan rentgen spektrlari yordamida q va λ parametrlarini barqarorlik va bug‘lanish tezligiga ta’siri orqali aniqlash mumkin bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi “**Magnit zaryadlangan qora o‘ralar va ideal**

suyuqlik qorong‘i modda muhitidagi radiatsiya jarayonlari, zarracha dinamikasi va kvaziperiodik tebranishlar” deb nomlanuvchi bobida, qora o‘ra uchun yangi yechim olingan. MCMC analizdan foydalanib, biz XTE J1550–564, GRS 1915+105, GRO J1655–40 va M82 X–1 kabi kuzatilgan qora o‘ra nomzodlari uchun massa, zaryad va ekzotik materiya parametrlariga cheklovlar qo‘yish, olingan natijalar ushbu modifikatsiyalangan gravitatsiya modellarining astrofizik ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yangi yondashuvlarni taqdim etilishi tahlil qilingan.

